


**RESPUBLIKA BOLALAR KUTUBXONASI  
AXBOROT- RESURS MARKAZLARIGA USLUBIY  
YORDAM KO‘RSATISH BO‘LIMI**

**SHOH VA SHOIR, ULUG‘ SIYMO –  
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUDINING  
534 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN  
USLUBIY TAVSIYANOMA**



**TOSHKENT 2017**

**Ushbu uslubiy tavsiyanoma Axborot-resurs markazlariga uslubiy yordam ko'rsatish bo'limi tomonidan tayyorlandi.**

**Respublika bolalar kutubxonasi uslubiy kengashining yig'ilishida 2017-yil \_\_\_-fevraldagi \_\_\_-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi.**

**Nashr uchun mas'ul:**

K.Bekova – Axborot-resurs markazlariga uslubiy yordam ko'rsatish bo'limi yetakchi mutaxassisi.

Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag'ishlangan uslubiy tavsiyanoma maktab ARMLari mutaxassislari va o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

Qo'llanmada Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, jahon tarixidagi xizmatlari va tutgan o'rni, shoh va yetuk shoirlik salohiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan. Ushbu uslubiy tavsiyanomada 5-7-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan tadbir ssenariysi berilgan.

*Bobur biz uchun tom ma'nodagi buyuk  
madaniyat, oliy darajadagi  
sharqona odob va axloq timsolidir.*

***Islom Karimov***

Har bir inson o'zligini anglashga, ajdodlari haqida ko'proq bilishga, ular hayotini o'rganishga intiladi. Bu borada esa tarixiy asarlar beqiyos ahamiyatga ega.

Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi o'tmishimizdan hikoya qiluvchi voqea va hodisalar biz uchun hamisha qimmatlidir.

Istiqlol tufayli tariximizni haqqoniy o'rganish imkoniga ega bo'ldik. Ko'plab buyuk bobokalonlarimiz asarlari singari Bobur ijodida ham yoshlarimiz uchun iboratomuz jihatlari ko'p. Uning Vatanni sevish, ota- onaga hurmat, do'stga sadoqat ko'rsatish xususidagi fikrlari kishiga yuksak ma'naviy saboq beradi.

O'zbek klassik adabiyotining ulkan namoyondalaridan biri, o'zbek adabiy tili va adabiyotining rivojiga bebaho hissa qo'shgan iste'dodli olim va o'ta ziyoli inson, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur murakkab ijtimoiy-tarixiy davrda yashab ijod qilgan.

O'zbekiston mustaqilligi sharofati bilan, o'zbek halqining buyuk allomalari qatorida Zahiriddin Muhammad Bobur munosib mumtoz faoliyati hamda buyuk iste'dod sohibi sifatida qilgan samarali ishlari xalqimiz tomonidan zo'r hurmat va ehtirom bilan esga olinmoqda va o'rganilmoqda.

# ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING

## HAYOTI VA IJODI

(1483-1530)

Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqhx ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» («Sher») laqabini oladi.

Bobur – o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili bo'lib, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzodadir. “Bobur” uning taxallusi, to'liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo.

Boburning otasi – Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi – Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamroxlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi.

Bobur otasi yo'lidan borib, mashhur sufiy — Xoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, „Boburnoma“ asarida Bobur Xo'ja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizlikdan xalos etganini, eng og'ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi. Otasi bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo'lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o'tiradi (1494-yil iyun).

Boburning o'z guvoxligiga ko'ra, shoir sifatida ijodiy

faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan: „Ul fursatlarda birorikkirar bayt aytur edim“, deb yozadi u. Bobur Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o‘rtasida yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlar to‘plana boshlashi ham shu yillarga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Binoiy, Abulbaraka va Bobur o‘rtasidagi ruboiy mushoirasi Samarqanddagi qizg‘in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman, davlat arbobi va ko‘p vaqti jangu jadallarda o‘tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg‘in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog‘larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san‘at va ijod ahlini o‘z atrofiga to‘plab, homiylik qilgan, ularni rag‘batlantirgan.

Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan. Uning „Topmadim“ radifli g‘azali va „Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi“ misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o‘sha yillardagi hayoti bilan bog‘liq.

Boburning ulkan san‘atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. Bobur ijodida, xususan, she‘riyatida kindik qoni to‘kilgan ona yurtini dildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, yoru diyor soginchi va visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi.

Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning g‘azal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida ma‘shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi, nozu karashmasi yengil va o‘ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining qarama-qarshilikli, murakkab va qisqa hayotida anchagina asarlar yaratgan bo‘lsa-da, ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas.

Boburning hozirgacha ilm xazinasiga kelib qo‘shilgan asarlari – uncha to‘liq bo‘lmagan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi «Mubayyin» nomli she‘riy risolasi, «Validiya» atalgan tasavvufga oid bir kitobchaning nazm bilan tarjimasi, Bobur ixtiro etgan va «Xatti Boburiy» nomi bilan mashhur bo‘lgan alifbo jadvali hamda «Boburnoma» asaridan iboratdir.

Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan va o‘sha davr o‘zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo‘lgan, shuningdek, Bobur nomini dunyoga mashhur qilgan shoh asari „Boburnoma“ ustidagi ijodiy ishini 1518-19-yillarda boshlagan. Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon materialni o‘z ichiga olganligi, til va uslubining go‘zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarining diqqatini o‘ziga tortgan va uning turli qo‘lyozma nusxalari izlana boshlagan va g‘arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi.

Asarning asli nomi «Boburiya» bo‘lsa-da, uni «Voqeanoma», «Tuzuki Boburiy», «Voqeoti Boburiy» deb atadilar, keyinchalik asar «Boburnoma» degan nom bilan mashhur bo‘lib ketdi.

Bugungi kunda uning 119 g‘azali, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit‘alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan.

„Mubayyin“ asari masnaviy tarzida yozilgan, islom

huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag'ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo'ljallangan „Mubayyin“da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to'g'risida ham shar'iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she'riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi.

Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, „Xatti Boburiy“, shuningdek musiqa san'ati va qator risolalari ham bo'lgan. „Xatti Boburiy“da muallif arab alifbosini tahrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan.

1526-yil 21-dekabrda Boburga qarshi suiqasd uyushtiriladi. Mahv etilgan Ibrohim Lo'diyning onasi oshpazlar bilan til biriktirib, uning ovqatiga zahar qo'shtiradi. Shuning asoratimi yoki ko'p yillik mashaqqatli va qo'nimsiz hayot ta'sirimi, har holda keyingi yillarda Bobur tez-tez kasalga chalinib turadi. 1527-yil oktabrida Bobur yana xastalikka uchragach, umrining oxirlab qolganini his etadi. Shunda Bobur o'zi e'tiqod qo'ygan Xoja Ahror Valiy ruhidan najot tilab, ixlos bilan uning nasrda bitilgan „Validiya“ asarini she'riy tarjima qiladi. Boburning mohir tarjimon sifatidagi qobiliyati namoyon bo'lgan 243 baytli bu asar katta ijodiy ilhom bilan juda qisqa muddatda yakunlangan. Boburning o'z e'tiroficha, tarjima tugashi hamonoq batamom sog'ayib ketgan. Bu yillarda u „Boburnoma“ fasllari ustida ishlashni davom ettirdi, yangi-yangi g'azal, ruboiylar yaratdi, o'z iborasi bilan aytganda, „Hindistong'a kelgali aytqon ash'orni“ tartibga solib, shuningdek, „Validiya“ tarjimasini, „Xatti Boburiy“ bilan bitilgan namuna va qit'alarni

Movarounnahr va Afg'onistonga, Xumoyun, Xoja Kalon, Hindol va boshqalarga yubordi. Humoyun Mirzoga atalgan ijtimoiy-axloqiy masalalarni tahlil etuvchi mashhur maktubi ham Bobur ijodiy faoliyatining yorqin qirralaridan biri bo'ldi.

Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 47 yoshida o'zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o'sha yerda dafn etildi, keyinchalik (1539), vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, o'zi bunyod ettirgan „Bog'i Bobur“ga qo'yildi.

Bobur O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon shahrida Bobur nomida teatr, kutubxona, milliy bog' („Bog'i Bobur“) bor. Bobur milliy bog'i majmuasida „Bobur va jahon madaniyati“ muzeyi, shoirning ramziy qabr maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida va Bobur bog'ida yodgorlik haykali o'rnatildi. Andijondagi markaziy ko'chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog'i va ko'chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog'iga Bobur nomi berildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta'ris etildi.



## **ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAQIDA 7 DALIL**

**1.** Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Fargʻona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga kelgan.

**2.** 1494 yili otasining oʻlimidan soʻng 12 yoshida Fargʻona hokimi etib tayinlangan.

**3.** 1504 yili Shayboniyxon Andijonni ham qoʻlga kiritgandan soʻng, Bobur janubga qarab yoʻl oldi va Kobul ulusida oʻz hokimiyatini oʻrnatgan.

**4.** 1526 yil aprelida Panipatda Hindiston sultoni Ibrohim Loʻdi bilan va 1527 yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan boʻlgan janglarda Boburning qoʻli baland kelgan.

**5.** Bobur 1530 yilning dekabr oyida Agra shahrida vafot etadi. Uning xoki keyinchalik vasiyatiga koʻra Qobuldagi “Bogʻi Bobur”ga olib kelingan.

**6.** Zahiriddin Boburning «Boburnoma» asariga qadar Hindiston hech qachon bunchalik chuqur oʻrganilmagan va u hind olimlariga mamlakat tarixini oʻrganishga katta yordam bergan.

**7.** Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan «Boburiylar sulolasi»ning «Buyuk moʻgʻullar» nomi bilan atalishi Ovroʻpo tarixchilarining xatosidir.

## **SHOH VA SHOIR SHAXSIYATIGA XOS 7 FAZILAT:**

- 1.** Vatanparvarlik.
- 2.** Yuksak himmatlilik.
- 3.** Jasurlik.
- 4.** Boshqaruvda benazirlik.
- 5.** Odamlarga farovonlik ulashish.
- 6.** Jangchilar koʻngliga yoʻl topish.
- 7.** Adolat qilmoqlik.

## ZAHIRIDDIN BOBUR HIKMATLARIDAN NAMUNALAR

- «Shafqatsiz kishi azobga loyiqdir.»
  
- «Yaxshi kishilarni Yaratgan yaxshi do‘stlar bilan siylaydi.»
  
- «Ko‘pchilik bahodirlar qanchalar kuchli bo‘lmasinlar, ular hargiz o‘z jahllari va qo‘rquvlaridan ustun kela olmaydilar.»
  
- «Ko‘nglingni dinlarning muhokama maydoniga aylantirma. Adolat o‘rnatishda insonlarning e’tiqodiga chuqur hurmatda bo‘l.»

## **MIRZO BOBUR TO‘G‘RISIDA 6 TA JAHONSHUMUL FIKR**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz insonlarni dunyoga bergan xalq hech qachon xor bo‘lmaydi, muqarrar tarzda saodatga erishadi.

*Islom Karimov, O‘zbekiston Respublikasining  
birinchi Prezidenti*

2. Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag‘batlantirishlar hayotga, san‘atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi.

*Javaharlal Neru, jamoat arbobi*

3. Bobur fe‘l-atvoriga ko‘ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan.

*Eduard Holden, tarixchi olim*

4. Mirzo Boburning Hindistondagi qudrati uning bosib olgan yerlari bilan emas, u hind xalqining ko‘nglida uyg‘ota olgan hurmat-ehtirom bilan o‘lchanadi.

*Qamar Rais, jamoat arbobi va adabiyotshunos*

5. Boburning hind xalqiga qilgan eng katta xizmati shuki – u xalqimizning ruhiy-ma’naviy olamini kengaytirib, ularni o‘z kulbalaridan tashqariga qarashga, dunyoning naqadar katta ekanini anglashga majbur qildi. Bobur san’at va, ayniqsa, adabiyotni sevardi.

*Javoharlal Neru, jamoat arbobi*

6. Saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fan, san’atga muhabbati, ularga mashg‘ulligi bilan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta hukmdor topilmaydi.

*Uilyam Erskin, «Boburnoma»ning ingliz tarjimoni*

**Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga bag‘ishlab tashkil  
qilinadigan kitob ko‘rgazmasi uchun O‘zbekiston  
Respublikasining birinchi Prezidenti so‘zlaridan sitata  
sifatida foydalanishni tavsiya etamiz:**

“Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi.”

***I.A.Karimov***

“Xalqimizning xotirasi ajoyib nomlarga boy. Butun jahonga mashhur bo‘lgan Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Al-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Ulug‘bek, Navoiy va boshqa ko‘pgina allomalarning ma'naviyati keng va ayni vaqtda qismati og‘ir bo‘lgan siymolardir.”

***I.A.Karimov***

“Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o‘z Vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeini munosib o‘ringa qo‘yish imkonidan mahrum edi.”

***I.A.Karimov***

“ ... Navoiy, Ulug‘bek, Bobur, Mashrab, Furqat, Qodiriy va xalqimizning boshqa buyuk farzandlari.. Ularning merosi O‘zbekiston xalqlari umuminsoniy qadriyatlarining ravnaqi va boyishiga xizmat qilib kelgan edi va bundan buyon ham xizmat qiladi. Biz ularning bebaho merosini xalqqa va avvalo yoshlarga yetkazish uchun barcha ishlarni qilamiz”.

***I.A.Karimov***

**Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining  
534 yilligiga bag‘ishlab tashkil qilinadigan kitob  
ko‘rgazmasi uchun taxminiy mavzular**

1. “Zahiriddin Muhammad Bobur” merosi.
2. Ulug‘ adib va alloma.
3. Uyg‘onish davrining ulug‘ siymosi.

Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 534 yilligiga tashkil qilinadigan kitob ko‘rgazmasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yozilgan adabiyotlar, ro‘znoma va oynomalarda chop etilgan maqolalardan foydalanish mumkin.

**Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatiga  
bag'ishlangan kitob ko'rgazmasini tashkil qilishda  
foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A.O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 12-chaqiriq O'zbekiston Oliy Kengashi 12-sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi.- 1993. 4- oktabr.

2. Xalq so'zi. Oilaparvar Bobur tavalludiga bag'ishlangan. 2012 y.

3. Karimov. Dolimov. O'zbek adabiyoti. T.O'qituvchi nashriyoti, 1979 y.

4. O'zbekiston ovozi. - 1993- 21 avgust.

5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Andijon haqida. "Boburnoma" dan

6. Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatidan. -T: O'zbekiston 1982- 143 b.

7. Qodirov P. Uyg'onish davrining ulug' siymosi. Til va adabiyot ta'limi. №1, 2003. 57 b.

8. Mirzo Muhammad Haydar. Bobur podshoh. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2002 y. 15 fevral.3b.

9. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2001 yil.



## G‘AZALLAR

Shoh Sulton Uvays binni Mahmud,  
Moh Sulton Uvays binni Mahmud.  
Qaddu og‘zingdin ayru tortarmen —  
Oh, Sulton Uvays binni Mahmud.  
Meni yod ayla bazmi ishqingda  
Goh, Sulton Uvays binni Mahmud.  
Xushturur hamrahim agar sensen —  
Roh, Sulton Uvays binni Mahmud.  
Podshahdur agarchi Bobur lek,  
Shoh Sulton Uvays binni Mahmud.

\* \* \*

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,  
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.  
Bu shaklu shamoyil bila xud x,uru parisen —  
Kim, jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas.  
Ag‘yor ko‘z olidayu ul yor ayon yo‘q,  
G‘am xori ko‘ngul ichrayu g‘amxor topilmas.  
Ey gul, meni zor etmaki, husnung chamanida,  
Ko‘zni yumub-ochquncha bu gulzor topilmas.  
Bobur, seni chun yor dedi — yorlig‘ etgil,  
Olamda kishiga yo‘q esa yor topilmas.

\* \* \*

\* \* \*

Yog‘lig‘ingkim, jon bila men xastadurmen, zor anga,  
Xasta jonlar rishtasidindur magar xar tor anga?  
Evrulur boshingg‘ayu gox,i yuzunga yuz qo‘yar,  
Bu jihattin ot emish «gulpech»u gax, «gulzor» anga.  
Bir chamandur saxnikim, bo‘lg‘ay binafsha sarbasar,  
Tegrasi gulzordurkim, bo‘lmag‘ay bir xor anga.  
Yog‘lig‘ing tokim yuzu ko‘zushta tegmish, bordurur  
Yuz meningdek zoru yuz ming men kibi bemor anga.  
Ey ko‘ngul, yuz pora qilsa yor tig‘i, g‘am yema,  
Lutf etib, gar bog‘lar o‘lsa yog‘lig‘ini yor anga.  
Ko‘nglum istar yog‘lig‘ingni, bapki andin bir nasim  
Yetsa Boburg‘a erur jon birla minnatdor anga!

\* \* \*

Ul parining tig‘idin qo‘rqtma meni, ey raqib,  
Ishqida boshimg‘a mening har ne kelsa, yo nasib!  
Evrulub boshingg‘a, ey oy, qilmisham tarki vatan,  
Rahm qilg‘il mangakim, sargashtadurmen, ham g‘arib.  
Telba bo‘lmoqlig‘din o‘zga choraye yo‘qtur manga,  
Ul pari ro‘nogahon ar chiqsa uydin yosanib.  
Jonda berkitgan o‘qin chekmak manga ranjedurur,  
Qo‘yg‘il ul o‘qni, chekay deb ranj chekma, ey tabib!  
Boburo, xargiz quloq she‘ringg‘a ul gul solmadi,  
Gulga ne parvoye, yuz faryod qilsa andalib.

## **“SHOH VA SHOIR”**

### **mavzusidagi adabiy kecha ssenariysi**

Kecha o‘tkaziladigan zal bayramona ruhda bezatilgan. To‘rda Zahiriddin Muhammad Bobur portreti, shuningdek, uning she‘rlaridan, rivoyatlaridan parchalar yozilgan plakatlar osilgan.

***Sahnaga ikk iboshlovchi chiqib keladi.***

#### **1-boshlovchi:**

Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, aziz o‘quvchilar. Bugun biz shoh va shoir, davlat arbobi xamda buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga 534 yil to‘lganligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan ushbu bayram kechasiga to‘plandik.

#### **2-boshlovchi:**

Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim ,  
Kunglumdin o‘zga mahrami asror topmadim.  
Jonimdek o‘zga jonni dilofgor ko‘rmadim,  
Ko‘nglum kibi ko‘ngulni giriftor topmadim.

#### **1-boshlovchi:**

Ko‘ngli tilagan murodiga yetsa kishi,  
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi,  
Bu ikki ish muyassar bo‘lmasa olamda,  
Boshini olib bir sariga ketsa kishi.

#### **2-boshlovchi:**

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda Umarshayx Mirzo xonadonida tavallud topdi.

Saroyda shahzodalarga xos munosib ta'lim - tarbiya olgan Bobur otasi vafotidan so'ng 12 yoshida taxtga o'tirdi.

### **1-boshlovchi:**

Bobur toj - taxt uchun bo'lgan urushlar tufayli Andijondan chiqib ketib, Hindistonda buyuk boburiylar sulolasiga asos soldi. Hindistonda qudratli saltanat o'rnatgan, davlatning gullab-yashnashida katta hissa qo'shgan sevimli shoirimiz 1530 yil Agra shahrida olamdan o'tdi.

### **2-boshlovchi:**

U o'z umri davomida "Boburnoma", "Mubayyin-al -zakot" (Zakot bayoni),"Xatti Boburi", "Xarb ishi" kabi ko'plab nasriy va she'riy asarlar yaratdi.

### **1-boshlovchi:**

Hozir o'quvchilarimiz tomonidan yod olingan Bobur ruboiylaridan tinglaymiz. (Sahnaga 5ta o'quvchi zarli chopon va do'ppilarda chiqadilar.)

### **1-o'quvchi:**

Davron meni o'tkardi saru samondin,  
Ayirdi meni bir yo'la xoni mondin.  
Gah boshima toj, gah baloyi ta'na,  
Nelarki boshimga kelmadi davrondin.

### **2-o'quvchi:**

Xar ishda shitob qilmagaysan,  
Bu demak murodga yetmagaysan.

### **3-o‘quvchi:**

Kishi yuz so‘z birla ko‘nglin olur.  
Birovnikim birovdin ko‘ngil qolur,

### **4-o‘quvchi:**

Yod etmas emish kishi mehnatda kishi,  
Shod etmas emish kishini g‘urbatda kishi.  
Ko‘nglim bu g‘ariblig‘ga shod o‘tmadi xech,  
G‘urbatda sevinmas emish albatta kishi.

### **5- o‘quvchi**

Necha nafing‘a bo‘lursan tobe,  
Necha umringni qilursan zoye.

**2-boshlovchi:** Endi tadbirimizga tashrif buyurgan tarixchi olimimizga so‘z beramiz.

### **1-boshlovchi:**

Bobur Hindistonda shoh bo‘lsada, bir umr Vatanim, uning tuprog‘ini bag‘rikeng odamlarini sog‘inib yashadi.

### **2-boshlovchi:**

U o‘zga yurt toji taxtidan Vatanning bir siqim tuprog‘ini afzal deb bildi. Shoir g‘azallarida, ruboiylarida armonga aylangan Vatan sog‘inchini his etamiz.

*(Maktab o‘quvchilari tomonidan kichik sahna ko‘rinishi namoyish etiladi.)*

*Mayin musiqa yangraydi.*

Bobur taxtda o‘tiribdi. Atrofdagi uch-to‘rt mulozimlari bilan mamlakatdagi siyosiy axvol, soliqlar to‘g‘risida suhbatlashmoqda. Shunda soqchi kelib bir kishi Boburning huzuriga kirish uchun izn so‘rayotganini aytadi.

**Bobur:** Ruxsat, huzurimga olib kelingiz. (Notanish kishi qo‘lida qovun bilan kirib keladi va ta‘zim qiladi.)

**Kishi:** Assalomu alaykum, hazratim. (Ta‘zim keltiradi.) Men savdogarman. Sizning huzuringizga kelishimdan maqsad Andijondan keltirilgan qovundan olib keldim. Ona yurtimizdan olib kelingan bu ne‘matdan totib ko‘ring, hazratim. Zora sog‘inchingizga malham bo‘lsa. (Bobur sekin taxtdan tushib kelib titroq qo‘llari bilan qovunni oladi. Uni uzoq hidlab yuz-ko‘zlariga surtadi va o‘ta g‘amgin holda gapiradi.)

**Bobur:** Rahmat, sizga. Vatanimning xush bo‘ylarini olib kelgan bu qovunda Andijon shamoli-yu, musaffo havosini, tabarruk tuprog‘ining isini, beqiyos ekinzorlarining go‘zalligini, bolaligim o‘tgan go‘zal vodiylar manzarasi, dilkash xalqimning nafasini, ota-onam mehrini tuydim. Kindik qonim to‘kilgan Vatan – mening beshigim, sog‘inchim va tuganmas armonlarimdir.

Tole yo‘qki jonimga balolig‘ bo‘ldi,  
Har ishniki ayladim, xatoliq bo‘ldi.  
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,  
Yo, rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

**1-Boshlovchi:** Buyuk shoir Zahiriddin Muhammad Bobur she‘riyati o‘zining nodir va badiiy qimmatini bilan ham adabiyotimizda katta o‘rin egallagan.

**2-Boshlovchi:** Ha, Bobur iymoni butun inson bo‘lgan, ana shu e’tiqod, uning o‘z iqroriga ko‘ra, uni doimo turli balo-qazolardan muhofaza qilgan.

Dunyoning tilagi, samari ham biz,  
Aql ko‘zin qarosi, javxari ham biz.  
To‘garak jahonni uzuk deb bilsak  
Shaksiz, uning ko‘zi, gavhari ham biz.

**1-boshlovchi:** Mumtoz adabiyotimiz, tarixiy asarlarimizni mutolaa qilishdan maqsadimiz undagi zarra-zarra ganjinlarni bugungi yoshlarimiz ongiga yetkazib, hayotda to‘g‘ri, jamiyat uchun manfaatli yo‘lga kirishlariga ko‘maklashishdir.

Hurmatli mehmonlar, aziz o‘quvchilar bugungi kechamizni Zahiriddin Muhammad Boburning so‘zlari bilan yakunlasak.

Unda kishi umrini mazmunli, barakali, o‘zidan keyin dog‘ va malomat qoldirmasdan yashashi, bu zaminda yashashdan maqsad, odamlarni ezgulikka yetaklash garovi bor. Unga amal qilish hammamizga nasib etsin:

Bormu erkin hech nima olamda  
hijrondin yamon.  
Har nekim ondin yamonroqdur,  
budur ondin yamon .

## **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari. Xalq so‘zi.-1993yil.- 4 oktabr.
2. Abdulxamidov A. Aslida ham shundaydir...:Zahiriddin Muhammad Boburning lirik ijodiyoti haqida.-Guliston,1984.- №2.-B.9.
3. Mirzo Muhammad Haydar. Bobur podshoh. O‘zbekiston adabiyoti va san'ati.- 2002 y.-15 fevral.
4. Mansurov B. Davonlar osha. Toshkent xaqiqati.- 1998 y.- 14 fevral.
5. Qudratullayev H. “Bu dunyoda kishidan ushmundoq nimalar qolur.-Ma'rifat.-2005.-16 fevral.
6. Qodirov P. Uyg‘onish davrining ulug‘ siymosi:Til va adabiyot ta'limi.-№1.-2003.-B.57.
7. Yo‘ldosheva R. Shoh va shoir. Boshlang‘ich ta'lim.-2006. №2.-B.19.